

PSYCHODIAGNOSTICS OF PRESCHOOL CHILDREN WITH DEVELOPMENTAL DISORDERS

Donabayeva Zebuniso

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi katta o'qituvchisi

E-mail: zebunisodonabayeva@gmail.com

Tel: (99) 051 18 19

Abstract

This article explores the psychodiagnostic assessment of preschool-aged children with developmental disorders. It highlights the importance of early identification of cognitive, emotional, and behavioral challenges in children and emphasizes the need for reliable diagnostic tools and techniques. The paper analyzes modern approaches in psychodiagnostics, including observation methods, standardized tests, and play-based assessment strategies adapted to children's individual needs. Practical recommendations are offered for improving the diagnostic process and providing targeted support in preschool education settings.

Keywords: Psychodiagnostics, developmental disorders, preschool children, early assessment, special education, individualized approach.

Introduction

Har qanday jamiyatda kelajak vorislari bo'lmish farzandlarni mas'ulayatni his etadigan, ularni davlat taraqqiyoti va gullab-yashnashiga salmoqli ulush qo'shadigan munosib fuqarolar bo'lib, etishishlariga katta umid bilan qaraladi. Davlatimizning ustivor siyosati yosh avlodni ma'nan etuk, jismonan sog'lom va aqlan barkamol qilib voyaga etkazishdir. Bu o'rinda rivojlanishida nuqsoni bo'lgan ayrim ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar tarbiyasi alohida e'tiborda bo'lib kelgan. Bola tarbiyasi dastlab oilada o'z ota-onasining bag'rida jismonan, aqlan va ma'nan shakllanib boradi. Farzandlar tarbiyasi ko'p jihatdan oiladagi muhitga, atrofdagi kattalarning bolani tarbiyalashga bo'lgan. munosabatiga bog'liqligi, ota-onaning jamiyat oldida mas'ul ekanligi, davlatimizning qator qonun va qarorlarida qayd etilgan.

Jismoniy va aqliy rivojlanishida nuqsonga ega turli yosh toifalarida bolalarni bir qator fanlarda – diffektologiya, maxsus psixologiya, maxsus pedagogika, amaliy psixologiya kabi bir qancha yo'nalishlarda o'rganishimiz mumkin. Maxsus psixologiya hamda maxsus pedagogika nuqsonli bolalarning ruhiy va jismoniy rivojlanish qonuniyatlarini o'rganuvchi fan bo'lib, quyidagi qismlardan iborat:

1. Aqli zaif bolalar (oligofreno psixologiya).
2. Qulog'i kar zaif eshituvchi bolalar.
3. Ko'zi ko'r va zaif ko'ruvchi bolalar.
4. Turli darajada nutqlari buzilgan bolalar.
5. Murakkab nuqsonli bolalar.
6. Ruhiy rivojlanishi sustlashgan bolalar.
7. Tayanch harakat tizimi buzilgan bolalar.

Har bir kategoriyadagi bolalar psixologo-pedagogik o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularni o'rganish jarayonida alohida strategiyalarni aniqlab olish zarur hisoblanadi. Shunday qilib birlamchi va ikkilamchi nuqsonlar natijasida anomal rivojlanishning shakllanishi murakkab sur'atga ega va u har bir bola uchun bir tomondan individual, ikkinchi tomondan esa unga o'xshash nuqsonlar bilan xarakterlanadi. Ushbu o'ziga xoslik rivojlanish nuqsonining har bir tipiga ta'alluqli bo'lib, bolalardagi psixofizik xususiyatlarini inobatga olib, maxsus ta'lim sharoitlarini aniqlashga yordam beradi.

Nutq tug'ma qobiliyat emas, balki hayot davomida bolaning jismoniy va aqliy rivojlanishi bilan parallel ravishda shakllanib boradi. Nutq buzilishlarini o'rganish, tushunish uchun bola nutqining normal rivojlanish yo'lini, bu jarayonning o'ziga xos xususiyatlarini, nutqning muvaffaqiyatli shakllanishida katta rol o'ynovchi sharoitni bilish lozim. Bundan tashqari bola nutqining rivojlanish davrlarini mukammal o'rganishi zarur. Bu esa nutqning rivojlanishi jarayonidagi turli xil kamchiliklarni o'z vaqtida bilish va aniqlash uchun kerak bo'ladi.

Nutq nuqsoni bu adabiy til me'yorlaridan biroz bo'lsa-da chetga chiqishdir. Nutq kamchiliklari quyidagilar bilan xarakterlanadi:

1. Nutq kamchiligi o'z-o'zidan barham topmaydi, balki vaqt o'tgan sari yanada mustahkamlanib, zo'rayib boradi;
2. Nutq kamchiliklarini kattalarda namoyon bo'lishi ularning yoshiga mos kelmaydi;
3. Nutq kamchiligiga ega bo'lgan kishilar logopedik yordamga muhtoj bo'ladilar;
4. Og'ir nutq kamchiliklari bolaning nafaqat nutqiga, balki uning umumiy rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Nutq kamchiliklari tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish bilan chegaralanib qolmay, shuningdek tovushlarni yetarli farqlamaslik va so'zni tovush tomondan analiz qilishdagi qiyinchiliklar uchraydi. Tuzatuvchi ta'lim tizimi uchta izchil davrdan iborat, ularning har biri o'z maqsad va vazifalariga ega.

Ta'limning birinchi davrida (sentyabr-noyabr) frontal mashg'ulotlar faqat "Talaffuzni shakllantirish va nutq o'stirish" bo'limi bo'yicha o'tkaziladi (haftada 5 marta). Ta'limning ikkinchi davrida (dekabr-mart) savod tayyorlash haftasiga ikkita mashg'ulot, talaffuzni shakllantirish va nutq o'stirishga haftasiga 3 mashg'ulot ajratiladi. Ta'limning uchinchi davrida (aprel-iyun), ya'ni o'quv materialiga har qanday tovushni kirgizish mumkin bo'lgan davrda (bu vaqtda tovushlar talaffuzining qo'yilishi tugallangan bo'lishi lozim) haftada bir yoki ikkita mashg'ulot nutq o'stirishga, bir yoki ikkita mashg'ulot talaffuzni shakllantirishga ajratiladi. Iyun-avgust oylarida o'tilgan materialni mustahkamlash bo'yicha yakka tartibdagi tuzatish ishlari o'tkaziladi.

Mashg'ulotlar soni logoped tomonidan bolalar kontingentini va ularning harakatlanish dinamikasini hisobga olgan holda belgilanadi. Bolalar lug'atini boyitish va aniqlashtirish bo'yicha asosiy ishni tarbiyachi olib boradi. Nutq o'stirish bo'yicha ishni logoped davom ettiradi va faoliyatini chuqurlashtirib boradi, bunda u o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- bolalar lug'atini kengaytirish;
- ularning diqqatini so'zlarning ma'nosiga va so'z tuzishning ba'zi usullariga jalb etish.

Korreksion ta'lim muvaffaqiyatidagi nutqiy kamchilik, uning turi, og'irlik darajasini to'g'ri va o'z vaqtida aniqlash hamda bartarf etish, tegishli mashg'ulotlarni barvaqt boshlashga bog'liq. Bu

jarayonga logoped – tarbiyachilar ham yangicha yondoshib, samarali izlanib ishlashlari maqsadga muvofiqdir. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar jismonan, ma'nan va ruhan rivojlanib, shaxs sifatida shakllanishlari uchun zamonaviy ta'lim va tarbiyaning eng sinalgan Logoped bolalar ishini tahlil qilish orqali mayda qo'l motorikasi, qog'ozda mo'ljal olish, diqqat, xotira, idrok, tafakkur va leksik mavzularni bilish haqida ma'lumotga ega bo'ladi. Olingan natijalar asosida bolalarni guruxlarga ajratadi va individual holda mashg'ulotlar o'tkazish uchun uslubiy rejalarini tuzib chiqadi.

O'rtadagi o'zaro samimiy muloqat o'ziga ishonmaslik, tortinchoqlikni engib o'tishda bolaga yordam beradi. Gurux va yangi joyga moslashish jarayonida bola o'zini xotirjam his qilishida logoped ko'magi va yondoshuvi o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Ta'limiy shakldagi o'yin – mashg'uloti bolani yangi faoliyatga o'tish uchun tayyorlaydi. Jumladan, guruh bilan ishlash chog'ida tanlangan mavzu sir tutiladi, toki, bola u yoki bu topshiriqni bajarish jarayonida mustaqil ravishda mashg'ulot mazmunini bilib olsin. Logoped mashg'ulot boshida tashkil etgan jarayon bolalar bugun qaysi tovush Bilan tanishishlarini mustaqil aniqlashiga yordam beradi.

Bolalar uchun eng qiziqarli, yoqimli mashg'ulot jamoa bo'lib o'tkaziladigan mashg'ulotdir. Unda faqatgina bolalar emas, balki, o'qituvchi-logoped, pedagog, musiqa raxbari va psixologlar ham ishtirok etadilar. Har bir murabbiy o'z guruhi uchun o'yin, topshiriq, boshqotirma, rebus, sxemalar tayyorlaydi. Ayniqsa, magnitli tasma yozuvlari va video materiallardan unumli foydalanish mashg'ulot ta'sirchanligini oshiradi, uning hayotiy va jonli bo'lishini ta'minlaydi. Natijada bolalarda ta'limga nisbatan qiziqish yanada ortadi, ular o'zlari qaysi topshiriqlar e'tiborga molik ekanligini ayta boshlashadi. Jamoaviy mashg'ulotlar umulashtiruvchi ahamiyat kasb etib, ularda bolalar muayyan vaqt davomida egallagan bilim va malakalarini namoyish etadilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolibekov A, Rasulova Z, Yusupova H. Maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarning axloqiy fazilatlarini shakllantirish yo'llari. – Guliston. 2020-yil. -188 b.
2. Defektologik lug'at.- M. 2000-yil.
3. Djurayeva B.R., Tojiboeva X.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishning zamonaviy tendentsiyalari. –T.: O'zPFITI, 2015-yil. – 113 b.
4. Do'lopova.M. "Quyunchaning uyi" mashg'ulot ishlanmasi,Maktabgacha ta'lim jurnali. -T.: 2019-yil.10-son.-4b
5. Hasanboev J. va boshq. Pedagogika fanidan izohli lug'at. -T.: "Fan va texnologiya" 2008-yil. - 42 b.
6. «Ilk qadam». Maktabgacha ta'lim tashkilotlari davlat o'quv dasturi. Tuzuvchilar: I.V.Grasheva, L.G.Evstafeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixonova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova. – T. MTV, 2018-yil. – 69 b.